

**Qandli diabet 2-tur va morbid semizlik bo‘lgan bemorlarda
psixosomiyal xolatini o‘ziga xosligi.**

Rajapova Sh.Q.

Ilmiy rahbar: dotsent **Sadiqova N.G.**

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Toshkent O‘zbekiston

Kirish: Qandli diabet, semizlik va ruhiy tushkinlik butun dunyo bo‘ylab va salomatlikka sezilarli ta‘sir ko‘rsatadigan juda keng tarqalgan kasallikdir. 2-tur qandli diabet bilan ruhiy tushkunlik, kognitiv buzilishlar kabi o‘zgarishlar o‘rtasida bog‘liqlik mavjud. 2-tur qandli diabet va semizlik bo‘lgan erkaklar va har 3 ayoldan birida depressiya rivojlanadi. Shunga ko‘ra bu o‘zgarishlar o‘lim xavfini oshiradi.

Tadqiqot maqsadi: Qandli diabet 2-tur va morbid semizlik bo‘lgan bemorlarda psixosomiyal o‘zgarishlarni o‘ziga xosligini o‘rganish.

Materiallar va tadqiqot metodlari: Tadqiqot uchun 2-tur qandli diabet va semizlik bo‘lgan, 5 yildan ortiq SGLT 2, DPP 4 guruh preparatlarini qabul qilib kelgan umumiy 31 ta bemorlar olindi. Ulardan 19 ta, yoshi $48 \pm 0,8$, tana vazn indeksi $38,5 \pm 0,7$ bo‘lgan ayollar, 12 ta, yoshi $45 \pm 0,2$, tana vazn indeksi $39,2 \pm 0,5$ bo‘lgan erkaklar tashkil etdi. Laborator ko‘rsatkichlar: qondagi glyukoza och qoringa $8 \pm 1,5$; ovqatlanishdan 2 soatdan keyin $12 \pm 1,3$; glikerlangan gemoglobin $7 \pm 0,5\%$. Vahima va depressiyaning hospital shkalasi (NADS) so‘rovnomasi asosida olib borildi.

Olingan natijalar: NADS bo‘yicha 0 dan 5 ballgacha -depressiya va vahimaning ifodalangan simptomlarning yo‘qligi; 6 dan 10 ballgacha –depressiya va vahimaning yengil darajada (subklinik); 11 dan 12 ballgacha- depressiya va vahimaning o‘rtacha darajasi; 13 va undan yuqori ball- depressiya va vahimaning og‘ir darajada. 15 kishida 3 ball, 10 kishida 7-8 ball, 4 kishida 11-12 ball, 2 kishida 13 ball aniqlandi.

Xulosa: Ushbu tadqiqot natijalari, 2-tur qandli diabet va morbid semiz bo'lgan bemorlarda psixoemotsional holatini o'ziga xosligini ko'rsatdi. Bu so'rovnoma orqali bemorlarda yuzaga keladigan ruhiy o'zgarishlarni, depressiyani erta aniqlab profilaktika qilish mumkin.



**Research Science and
Innovation House**